

20-Sentyabr, 2026-yil

**O‘ZBEKISTONDA JINOYAT KO‘P SODIR ETILADIGAN HUDUDLARNI
ANIQLASH VA PREVENTIV CHORALAR KO‘RISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI**

Yusupova Shaxnoza Yuldash qizi

*O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish
akademiyasi tadqiqotchisi*

Elektron pochta: shaxnozayuldashevna02@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdan O‘zbekiston Respublikasida jinoyatchilikning hududiy taqsimlanishini tahlil qilish, jinoyat ko‘p sodir etiladigan hududlarni “o‘choqlarni” aniqlash hamda ularning oldini olishga qaratilgan preventiv choralar tizimini takomillashtirish istiqbollari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi jamoat xavfsizligini ta’minlashda an’anaviy va zamonaviy kriminologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish zaruratini asoslashdan iborat. Ishda statistik va kriminologik-fazoviy tahlil usullaridan foydalanilib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar amaliyotiga raqamli modellashtirish hamda maqsadli profilaktika mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Jinoyatchilik o‘choqlari, preventiv choralar, kriminogen hududlar, jamoat xavfsizligi, kriminologik tahlil, profilaktika, O‘zbekiston amaliyoti.

**ПЕРСПЕКТИВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ВЫЯВЛЕНИЯ
ТЕРРИТОРИЙ С ВЫСОКИМ УРОВНЕМ ПРЕСТУПНОСТИ И ПРИНЯТИЯ
ПРЕВЕНТИВНЫХ МЕР В УЗБЕКИСТАНЕ**

Юсупова Шахноза Юлдашевна

*Исследователь Академии правоохранительных органов
Республики Узбекистан*

Электронная почта: shaxnozayuldashevna02@gmail.com

Аннотация: В данном тезисе освещены перспективные направления анализа территориального распределения преступности в Республике Узбекистан, выявления очагов преступности ("hotspots"), а также совершенствования системы превентивных мер, направленных на их предупреждение. Цель исследования — обосновать необходимость интеграции традиционных и современных криминологических подходов в обеспечение общественной безопасности. В работе использованы методы статистического и пространственно-криминологического анализа, разработаны предложения по внедрению цифрового моделирования и механизмов адресной профилактики в практику правоохранительных органов.

Ключевые слова: Очаги преступности, превентивные меры, криминогенные территории, общественная безопасность, криминологический анализ, профилактика, практика Узбекистана.

**PROSPECTS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF IDENTIFYING HIGH-
CRIME AREAS AND TAKING PREVENTIVE MEASURES IN UZBEKISTAN**

Yusupova Shakhnoza Yuldashevna

Researcher at the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan

mail: shaxnozayuldashevna02@gmail.com

Abstract: *This thesis highlights the prospects for analyzing the territorial distribution of crime in the Republic of Uzbekistan, identifying crime hotspots, and improving the system of preventive measures aimed at their prevention. The research aims to substantiate the necessity of integrating traditional and modern criminological approaches to ensuring public safety. Using methods of statistical and spatial-criminological analysis, proposals have been developed for implementing digital modeling and targeted prevention mechanisms into law enforcement practice.*

Keywords: *Crime hotspots, preventive measures, criminogenic areas, public safety, criminological analysis, crime prevention, practice of Uzbekistan.*

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda jamoat xavfsizligini ta‘minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda uning oldini olish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, jinoyatchilikning hududiy jihatdan notekis taqsimlanishi, ayrim hududlarda jinoyatlarning yuqori darajada sodir etilishi ushbu yo‘nalishda ilmiy asoslangan yondashuvlarni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimi izchil ravishda rivojlanib, uning huquqiy asoslari bosqichma-bosqich takomillashtirib borildi.

Xususan, 2010–2016-yillar mazkur tizimda mavjud bo‘lgan huquqiy va tashkiliy bo‘shliqlarni bartaraf etish, alohida faoliyat yo‘nalishlari uchun mustahkam normativ-huquqiy asos yaratish davri sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur davrda voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning oldini olish, tezkor-qidiruv faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish, huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimini shakllantirish, ichki ishlar organlari faoliyatini aniq huquqiy me‘yorlar asosida tashkil etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim qonunlar qabul qilindi. Ushbu normativ-huquqiy hujjatlar jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimining institutsional asoslarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Keyingi bosqich, ya‘ni 2017–2024-yillar davomida esa jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini tanqidiy qayta ko‘rib chiqish, uni zamonaviy talablarga moslashtirish, qonunchilikni takomillashtirish hamda amaliy faoliyat samaradorligini oshirishga alohida e‘tibor qaratildi. Bu davrda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tizimli yondashuvni kuchaytirish, idoralararo hamkorlikni mustahkamlash va boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishga xizmat qildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 14-martdagi PQ-2833-son qarori bilan huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari belgilandi. Mazkur qarorga muvofiq, Bosh prokuratura ushbu yo‘nalishda yagona muvofiqlashtiruvchi organ etib belgilandi hamda respublika idoralararo komissiyasining huquqiy maqomi, tarkibi va faoliyat yo‘nalishlari tasdiqlandi. [1].

2018-yil 14-fevraldagi PQ-3528-son qaror asosida Toshkent shahrida jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yangi tizimi joriy etildi. Ushbu tizim hududlarni sektorlar kesimida boshqarish, kuch va vositalarni maqsadli taqsimlash hamda ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirishni ta‘minlashga xizmat qildi.

Bundan tashqari, Prezidentning 2018-yil 31-oktabrdagi PF-5566-son farmoni bilan jinoiy-huquqiy statistika tizimi tubdan takomillashtirilib, “Elektron jinoiy-huquqiy statistika” yagona axborot tizimi joriy etildi. Mazkur tizim jinoyatchilik holatini tahlil qilish va prognozlash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

2019-yil 29-maydagi PQ-4343-son qaror bilan Toshkent viloyatida ichki ishlar organlari faoliyatini boshqarishning yangi modeli joriy etilib, “Xavfsiz poytaxt” konsepsiyasining ilg‘or tajribasi hududlarga tatbiq etildi.

Shuningdek, 2021-yil 26-martdagi PF-6196-son farmon asosida ichki ishlar organlari faoliyatini “respublika – viloyat – tuman – mahalla” tamoyili asosida tashkil etish mexanizmlari joriy qilindi.

“Smart mahalla” axborot dasturi orqali yo‘lga qo‘yish, IIV tuzilmasini takomillashtirish orqali turdosh sohaviy xizmatlar faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning yagona tizimini joriy etish IIV Tezkor-ma‘lumotlar boshqarmasi va Bosh prokuratura Jinoiy-huquqiy statistika boshqarmasi negizida IIV huquqiy statistika va tezkor-hisob ma‘lumotlar markazini tashkil etish kabilar belgilandi.

Prezidentning 02.04.2021-yildagi PQ-5050-son Qarori bilan “mahalla huquq-tartibot maskani to‘g‘risida”gi nizom asosida huquqbuzarliklar sodir etilishiga ta‘sir etuvchi muammolarni o‘rganish hamda bartaraf etishga doir “Xavfsiz xonadon” va “Xavfsiz hovli” tizimini yo‘lish, Yagona “poytaxt mintaqasi” tamoyili asosida Toshkent shahar va Toshkent viloyati IIB boshliqlari ham raisligida jamoat xavfsizligini ta‘minlash masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etish, shaxslarni profilaktik hisobga olishning elektron tizimi joriy etish, 2021-2023-yillar davomida jazoni ijro etish tizimini raqamlashtirish choralari belgilandi hamda ichki ishlar organlarida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi tasdiqlandi.[2]

2021-yil O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasi tasdiqlandi, shuningdek, 2022-2025-yillarda jamoat xavfsizligini ta‘minlash tizimini rivojlantirish strategiyasi va “Yo‘l xaritasi” qabul qilindi.

Bundan tashqari 2024-yilda Kriminologiya tadqiqot instituti tashkil etildi hamda uning zimmasiga buyurtma va tashabbus asosida ilmiy-amaliy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, kriminologik faoliyatni ekspertlik va ilmiy ta‘minlash kabi vazifalar yuklatildi.

Prezidentning 03.01.2025 yildagi PQ-1-son Qarori bilan 2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhit yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlar dasturi; “E-ijtimoiy profilaktika”

axborot tizimi, “namunali xavfsiz ko‘cha”, “namunali xavfsiz yo‘lak” loyihalarini joriy etish kabilar nazarda tutildi. Konsepsiyadagi eng muhim yangiliklardan yana biri — viloyat darajasidagi prokuror o‘rinbosarlari va ichki ishlar organlari boshliq o‘rinbosarlarining mahallalarga nomma-nom biriktirilishi va ularning haftada kamida uch kunini bevosita mahallada o‘tkazishidir.

Bu mexanizm 2025-yilning birinchi choragida pilot tartibda 300 dan ortiq mahallada sinovdan o‘tkazildi. Natijada, biriktirilgan rahbarlar faoliyati boshlangan mahallalarda mart-aprel oylarida jinoyatlar soni o‘rtacha 25–30 % ga kamaygan.

Masalan, Olmaliq shahrida 2025-yilning birinchi to‘rt oyida mahallalarda 19 ta oldini olish mumkin bo‘lgan jinoyat sodir etilgani aniqlangan, bu esa profilaktik choralarning yetarli emasligini ko‘rsatadi, ammo biriktirish mexanizmlari orqali vaziyat yaxshilamoqda.

Shu bilan bir qatorda mahallalarda profilaktika katta inspektorlari shtatining ko‘paytirilishi va patrul-post xizmatining doimiy faoliyati joriy etilgan. 2025-yil yakuniga qadar 1235 ta og‘ir kriminogen mahallada qo‘shimcha 2 470 ta profilaktika inspektori (shu jumladan 1 235 ta katta inspektor) shtat birligi tashkil etildi.[4]

O‘zbekiston sharoitida predpolni tizimini joriy etish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi mumkin:

Geografik tahlil – jinoyatlar sodir etilgan joylarni xaritalashtirish orqali eng xavfli hududlarni aniqlash;

Vaqt bo‘yicha prognozlash – jinoyatlar ko‘proq sodir etiladigan vaqt oralig‘ini aniqlash (masalan, kechki yoki tungi soatlar);

Ijtimoiy omillarni hisobga olish – ishsizlik darajasi, aholi zichligi va boshqa omillarni tahlil qilish;

Raqamli texnologiyalar – sun‘iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) yordamida jinoyatchilikni prognoz qilish.

Mazkur tizimni joriy etish natijasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar kuch va vositalarni to‘g‘ri taqsimlaydi, patrullik xizmatlari aynan muammoli hududlarga yo‘naltiriladi va jinoyatlarning oldi olinadi. Bu esa jamoat xavfsizligini ta‘minlashda yuqori samaradorlikni beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezidentning 14.03.2017 yildagi PQ-2833-son Qarori.

2. Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta‘minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida. 02.04.2021-yildagi PQ-5050-son.

3. “2025-yilda Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida” 03.01.2025 yildagi PQ-1-son Qarori.

4. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy holati: Statistik to‘plam. – Toshkent: o‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, 2025. – 124-b.